

**ETNOARXEOLGIYADA GENDER VA UNING
HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI**

Normetov Bunyod Jasur o'g'li¹

*¹ Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti arxeologiya
yo'nalishi talabasi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.02.2025

Revised: 19.02.2025

Accepted: 20.02.2025

Ushbu maqolada gender tushunchasi, jins tushunchasi bilan aloqasi, gender tenglikning kelib chiqishi tarixi o'r ganilgan. Genderning etnoarxeologik belgilari va ayollarning jamiyatda tutgan o'rni haqida gap ketadi.

KALIT SO'ZLAR:

*Gender, matriarxat,
paleolit vinerasi,*

*Z.Freyd, Geterizm,
onalik xuquqi,
I.Y.Baxofen*

KIRISH. Gender tushunchasi 1970-yillarning boshlarida "femenistik" (ayollik) yo'nalish va g'oyalarning rivojlanishi tufayli tarqalishi jadallahdi. "Gender"va "jins" tushunchalari orasidagi farq biologik taqdir sifatidagi oddiy g'oyalarni shubha ostiga qo'yishga va shu bilan ilgari bo'lмаган tematik sohalarni o'r ganib, ijtimoiy va gumanitar fanlarning ufqlarini sezilarli darajada kengaytirishga imkon berdi va ilmiy qiziqish mavzusiga aylandi. Gender tushunchasini fanga birinchi marta psixoanalitik olim R. Stoller 1968-yilda kiritilgan. R. Stoller va D. Moni birgalikda biologik jins va ijtimoiy jins tushunchalarning farqlarni fanga ma'lum qilishgan. R. Stollerni boshqa olimlardan farqli ravishda "jinsiy aloqani" biologik deb, "genderni" esa ijtimoiy tushancha deb kiritgan. Gender psixologiyasi bo'yicha bir qancha olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Z. Freyd psixoanaliz orqali ong va ongsizlik tushunchalarini ochib berishda asosiy rolni gender orqali ko'rsatib o'tgan. G. Duran, K. Yung, kabi olimlarning

tadqiqotlarida ham gender tengligini o‘z qarashlari va g‘oyalari orqali ochib berishgan. Ularning tadqiqotlarida “jins va ruh”, “muskulinoid”, “feminoid” tushunchalari ochib berilgan. Ko‘pgina olimlarning qarashlarida ayol va erkaklarning jamiyatda va oilada teng huquqga ega bo‘lishi kabilarni o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Gender so‘zining ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak gender –inglizcha “gender” – “zot” “jins” ma’nolarini anglatadi. Jins tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: jins erkaklar va ayollar o‘rtasidagi bir-biridan farq qiluvchi biologik belgilar bo‘lib, anatomik va fiziologik, ya’ni individning biologik jinsga –ayol yoki erkak jinsiga mansubligini bildiradigan ma’lum biologik belgilar yig‘indisidir. “Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi jiddiy bo‘limgan farqlar ularning biologik xususiyatlari taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlardan tashqari, o‘z tabiatiga ko‘ra biologik sabablarga asoslanuvchi ko‘plab farqlar bor, ya’ni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo‘linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida ko‘plab farqlar mavjud.

Asosiy qism:

Etnoarxeologik gender — arxeologiya va etnografiya ilmlarining gender masalalariga oid birikmasi bo‘lib, o‘tmishdagi jamiyatlarda erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollari, ish taqsimoti, kundalik faoliyatları va bu faoliyatlarning moddiy qoldiqlarda qanday aks etganini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi shundan iboratki, arxeologik topilmalarni faqat jismoniy dalil sifatida emas, balki ularning ortida yotgan ijtimoiy tuzilmalarni ham anglashdir. Ibtidoiy jamiyatlarda gender rollari ijtimoiy tuzilmalar bilan chambarchas bog‘liq edi. Bu tuzilmalar ko‘proq urug‘ va oilaviy mehnat taqsimoti asosida tashkil topgan. Erkaklar, odatda, ovchi yoki jamoaviy himoya vazifalarini bajargan bo‘lsa, ayollar ko‘proq bolalar parvarishi, uy-ro‘zg‘or ishlarining bajarilishi va o‘simpliklarni yig‘ish kabi faoliyatlarni olib brogan. Shu tariqa, gender masalalarini o‘rganishda arxeologlar etnografik ma’lumotlardan foydalanadilar. Masalan, hozirgi va yaqinda yashab o‘tgan an’anaviy jamiyatlar hayotini kuzatib, o‘tgan zamonlarda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ish taqsimoti va munosabatlar qanday bo‘lganini anglashga harakat qilishadi. Etnoarxeologik gender tadqiqotlari gender stereotiplari va noto‘g‘ri talqinlarning oldini olishga yordam beradi. Tarix davomida gender munosabatlarining dinamikasini anglash orqali hozirgi zamonaviy jamiyatlarda gender tenglikka oid muammolarni chuqurroq tushunishga ko‘maklashadi. Qadimgi qabrlarni o‘rganish orqali erkaklar va ayollarga qanday ehtirom ko‘rsatilgani aniqlanadi. Masalan, ayollar qabrlariga zeb-ziynat yoki maishiy buyumlar qo‘ylgan bo‘lsa, erkaklarning qabrlarida qurollar yoki mehnat qurollari topilishi mumkin. Shu qabrlardagi buyumlarga qarab o’sha davr jamiyatidagi erkak va

ayolning rolini aniqlashimiz mumkin. Genderni aniqlashda antropologik va genetik tahlillar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali jinsni aniqlash bilan birga, o'sha davrdagi ovqatlanish odatlari, mehnat faoliyati va ijtimoiy maqom haqida ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari qadimiy san'at asarlari, qoyatosh rasmlari, haykallar va naqshlarda erkaklar va ayollarning rollari tasvirlangan bo'lishi mumkin. Bu tasvirlar orqali jamiyatdagi gender stereotiplari, mehnat taqsimoti va madaniy qadriyatlarni tushunish mumkin. Ba'zi jamiyatlarda ayollar "hayot manbai" yoki "ona ma'budasi" sifatida ko'rsatilgan. Bu qadimiy jamiyatlarda ayollarning hurmat va ulug'lanish belgisi sifatida qaralganligini anglatadi. Ilk urug'chilik davri ham matriarxatdan boshlanadi. Matriarxat (lotincha mater – ona va yunoncha arche – hokimiyat) – oila-urug'chilik munosabatlari rivojining ikkinchi bosqichida ayol hukmron mavqega ega bo'lib, mulk va mansablar ona urug'i tamoyili asosida meros bo'lib o'tgan davrni ifodalovchi atama. Paleolit davrida ayol haykalchalari yasala boshlaydi. Bu ayollarning jamiyatda muhim o'rinn tutganidan dalolat. Haykalchalar "Paleolit vinerasi" deb ataladi. Paleolit Venerasi — bu qadimgi davr san'atining eng mashhur namunalaridan biri bo'lib, ular odatda ayol tanasi shaklida ishlangan haykalchalardir. Bu artefaktlar asosan Paleolit davrining oxirlariga tegishli bo'lib, Evropadan Osiyo va Sibircacha bo'lgan hududlarda topilgan. Ushbu haykalchalar tosh, suyak, fil suyagi yoki loydan yasalgan. Ba'zilari yuqori sifatli jilolangan bo'lib, bu ularning maxsus maqsad uchun ishlatilganligini anglatadi. Ko'pchilik Veneralar kichik o'lchamda (taxminan 4–25 sm balandlikda) yasalgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar Veneralarni unumdonorlik, ko'payish va hayotiylik ma'budasi deb hisoblaydi. Ko'krak va qorin bo'rttirib ko'rsatilishi bunga dalil bo'la oladi. Paleolit Veneralari qadimgi jamiyatlarning ayolni hayot va tabiatning asosiy manbai sifatida qadrlaganini ko'rsatadi. Ushbu haykalchalar qadimiy dinlar yoki marosimlarda unumdonorlikni ta'minlash, tabiat kuchlariga hurmat bajo keltirish maqsadida ishlatilgan bo'lishi mumkin degan qarashlarni ilgari suradilar. Shvetsariyalik tarixchi va yurist I.Y.Baxofen ibridoiy oila va nikoh, gender masalalarini o'rganish ishiga eng dastlabki asos solgan tadqiqodchilardan biri hisoblanadi. U qadimgi klassik adabiyot, etnografiya va arxeologiya fanlari qo'lga kiritgan ma'lumotlarga asoslanib yaratilgan "onalik xuquqi" va boshqa asarlarida oila, nikoh va genderning vujudga kelishi haqida qimmatli mulohazalar bildiradi; Kishilar dastlab tartibsiz jinsiy aloqa qilib yashaganlari, buni Baxofen "geterizm"- erkin hayot kechiruvchi ayol degan nomuvofiq nom bilan atagan. Shunday ekan tug'ilgan bolaning otasi kim ekanligini bilishning imkoniyati bo'limgan, binobarin nasl-nasabi faqat xotin tomondan qarab onalik xuquqiga qarab belgilash mumkin edi. Demak shunday ekan xotinlar tug'ilgan bollarning onalari, ularni tug'ib o'stirganliklari

hammaga aniq ma'lum bo'lganligi sababdan ayollar juda katta e'tibor qozonganlar va izzat-ikrom qilingan. Ayollar bunday izzat-ikrom qilinganliklari tufayli tufayli to'la hukmronlik ginekokratiya darajasiga yetishgan edilar. Keyinchalik bu fanda gender deb atala boshlaydi. Gender biologik jinsga asoslangan bo'lsa-da, uning roli va mazmuni ko'p hollarda jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy va madaniy me'yorlar orqali shakllanadi. Har bir jamiyatning o'ziga xos gender talablari va stereotiplari mavjud. Gender rollari statik emas, balki tarixiy jarayon davomida o'zgarib kelgan. Qadimiy jamiyatlarda gender rollarining qattiq ajratilganligi bugungi zamon jamiyatlaridan farq qilgan. Masalan, qadimda ayollar nafaqat uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullangan, balki iqtisodiy, siyosiy va harbiy faoliyatda ham muhim rol o'ynagan. Gender tengligi masalasi jamiyatlarning tarixiy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Ko'plab qadimiy jamiyatlarda ayollar va erkaklarning huquqlari va imkoniyatlari bir xil bo'lмаган. Biroq zamonaviy dunyoda gender tengligi asosiy ijtimoiy qadriyatlardan biriga aylangan. Qadimiy va zamonaviy jamiyatlarda genderning iqtisodiy hayotdagi o'rni sezilarli bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik yoki hunarmandchilik jamiyatlarida ayollarning iqtisodiy hissasi muhim bo'lgan va bugungi kunda ham gender tengsizligi iqtisodiy masalalarda o'z aksini topishi mumkin (masalan, maoshlar orasidagi farq). Qadimdan boshlab erkaklar hokimiyatni qo'lga kiritgan, biroq ba'zi jamiyatlarda ayollar ham yetakchilik lavozimlarini egallagan. Zamonaviy dunyoda ayollarning siyosiy va ijtimoiy rahbarlikdagi roli sezilarli darajada oshmoqda. Bu ham genderning bir belgisi hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlarda topilgan ayrim artefaktlar ham qadimgi davr jamiyatida ayollar muhim o'rin tutganidan dalolat beradi. Tarix va etnografik tadqiqotlar orqali gender rollarining rivojlanishini o'rganish, bugungi kundagi gender tengsizliklarini tushunish va bartaraf etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Ibtidoiy jamiyatlarda gender rollari ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy funktsiyalarga asoslangan bo'lib, ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jamiyatning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilganidan dalolat beradi. Ayollar oilaning barqarorligi va nasli davom ettirishda asosiy rol o'ynagan bo'lsa, erkaklar resurslar va himoya bilan ta'minlashda muhim o'rin tutgan. Bu jamiyatlar o'rtasida genderga asoslangan mehnat taqsimoti mavjud bo'lib, vaqt o'tishi bilan patriarchal tizimlar shakllanib, ayollarning pozitsiyasi o'zgarganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ahmedov Botirjon Ravshanovich“O‘zbek tilida gender tadqiqi”.Andijon2012 6-b..<https://fayllar.org/magistr-darajasini-olish-uchun-tayyorlangan-dissertatsiya-ilmi.htm>
2. Э.Гидденс Социология. –Т. «Шарқ». 2002., 185-бет.
3. A.Kabirov “Ibtidoiy jamiyat tarixi “ Toshkent 2001
- 4.O.U.Muminov, A.D.Bababekov “Inson evolutsiyasi va old tarix” o’quv qo’llanma Toshkent-2017
- 5.”Tarixiy antropologiya” Buxoro-2019
6. Yuval Noa Xarari “Insoniyatning qisqacha tarixi” Sapiens
- 7.M.O.Kosven “Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar” Toshkent-1960
8. Fan va turmush jurnali <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/169-fan-va-turmush>
9. <https://gsdrc.org/topic-guides/gender/understanding-gender/>

